


138. Yig'indini songa ko'paytirish

Yondosh mavzu:
tabiat in'omlari.

Taqsimot qonuni.



1. Hisoblamasdan taqqoslang.

O'quvchilar kartoshka va piyoz ekilgan maydonni uchratishdi. Biri $(20 + 40) \cdot 10$ deb yozdi. Ikkinchisi $20 \cdot 10 + 40 \cdot 10$ ko'rinishda yozdi. Kim to'g'ri hisoblagan?



Sonni yig'indiga ko'paytirishda bu sonni har bir qo'shiluvchiga ko'paytirish, keyin natijalarni qo'shish mumkin:

$$(20 + 40) \cdot 10 = 20 \cdot 10 + 40 \cdot 10.$$

2. Tomonlari 4 cm va 8 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing.

Uning yuzini toping.

Ikkita to'g'ri to'rtburchak chizing. Birinchisining tomonlari 4 cm va 3 cm, ikkinchisniki 4 cm va 5 cm bo'lsin. Bu to'g'ri to'rtburchaklarning umumiy yuzini toping. Siz nimani payqadingiz?

3. Sonlarni namuna bo'yicha xona qo'shiluvchilari ko'rinishida yozing.

Namuna: $621 = 6$ yuzl. 2 o'n. 1 birl.

342

583

497

654



4. Namuna bo'yicha hisoblang.

Namuna:

$$(3 + 5) \cdot 6 = 3 \cdot 6 + 5 \cdot 6 = 18 + 30 = 48$$

$$(2 + 9) \cdot 4$$

$$(3 + 8) \cdot 6$$

$$(4 + 5) \cdot 7$$

$$5 \cdot (8 + 3)$$

$$2 \cdot (5 + 7)$$

$$4 \cdot (8 + 3)$$



5. Bitta tarvuz o'rtacha 5 kg keladi. Birinchi yashikda 20 ta, ikkinchi yashikda 10 ta tarvuz bor. Bu tarvuzlarning umumiy massasi qanday?



6. To'g'ri to'rtburchakda ikkita to'g'ri chiziq o'tkazildi va uchta kvadrat hosil qilindi. Bu to'g'ri to'rtburchak qanday bo'lishi mumkinligini va u qanday bo'linganini chizib ko'rsating.



7. Sonlarni namuna bo'yicha yozing.

Namuna: 7 yuzl. 2 o'nl. 3 birl. = 723

8 yuzl. 2 o'nl. 1 birl.

1 yuzl. 5 o'nl. 5 birl.

3 yuzl. 9 o'nl. 8 birl.

5 yuzl. 4 o'nl. 6 birl.



8. Hisoblang.

$$(20 + 30) \cdot 5$$

$$(40 + 20) \cdot 7$$

$$(10 + 60) \cdot 4$$

$$(80 + 20) \cdot 6$$

$$(50 + 40) \cdot 6$$

$$(60 + 20) \cdot 8$$



9. Ifodalar yozing va ularni hisoblang.

	Bir yashikda, kg	Yashiklar soni	Jami, kg
	10	5	?
	?	7	140
	8	?	560